

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINI O'QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASHDA INNOVATSION METODLAR VA DIDAKTIK YONDASHUVLAR

Ergasheva S.T.

*O'zbekiston milliy pedagogika universiteti o'qituvchisi,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinfi o'qituvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslangan holda, o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'qituvchi va ota-onalar hamkorligini yo'lga qo'yishning ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida metodik tayyorgarlik jarayonida uchraydigan muammolar va qarama-qarshiliklar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo'llari, shuningdek didaktik materiallardan samarali foydalanish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, metodik tayyorgarlik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, didaktik materiallar, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы совершенствования методической подготовки будущих учителей начальных классов к развитию читательской грамотности учащихся. На основе принципов личностно-ориентированного обучения анализируется значение контроля знаний, сотрудничества с родителями, применения современных педагогических технологий. Определены противоречия, существующие в процессе методической подготовки, и предложены пути их устранения. Особое внимание уделено эффективному использованию дидактических материалов и инновационных подходов в образовательном процессе.

Ключевые слова: читательская грамотность, методическая подготовка, личностно-ориентированное обучение, дидактические материалы, инновационные технологии.

Annotation. This article examines the issues of improving the methodological training of future primary school teachers in developing students' reading literacy. Based on the principles of learner-centered education, the paper analyzes the importance of monitoring students' knowledge, fostering cooperation with parents, and applying modern pedagogical technologies. The study identifies existing contradictions in teacher training programs and suggests ways to overcome them. Special emphasis is placed on the effective use of didactic materials and innovative teaching methods to enhance reading literacy.

Keywords: *reading literacy, methodological training, learner-centered education, didactic materials, innovative technologies.*

Bugungi kunga kelib, an'anaviy o'qitish o'rnini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam nazorat qilib borish, o'quvchilarning olayotgan bilimlaridagi bo'shliqlarni o'z vaqtida to'ldirib borish, iqtidorli o'quvchilardagi intellektual potentsialning muntazam rivojlanishiga shart-sharoit yaratish, kattalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga qiziqtirish, ularning salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va tajribalami boyitish, sinfdan tashqari pedagogik tadbirlar rejasini ishlab chiqish, o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan hamda pedagogika fanining ilg'or yutuqlaridan muntazam foydalanish ya'ni ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiya elementlarini olib kirish, ulardan samarali foydalanish, o'qituvchilarning ota-onalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishini yo'lga qo'yish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakalarini muntazam oshirib borishda zamonaviy metodlardan foydalanish kabi vazifalarni amalga oshirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ta'limga doir meyoriy hujjatlarda ham boshlang'ich sinflar uchun o'qituvchilarni tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratiladi[18].

Ijodiy shaxsni tayyorlashga to'sqinlik qiladigan kamchiliklar sirasiga nafaqat psixologik pedagogik turkumidagi o'quv fanlari o'qitilishida uzluksizlik yo'qligini, balki quyidagilarni ham kiritish mumkin:

- metodik, ixtisoslashtirilgan va gumanitar fanlar o'rtasida fanlararo aloqadorlik yetarlicha ishlab chiqilmaganligi;

- mehnat faoliyatiga taalluqli ta'lim shakllarining optimal nisbatini belgilash muammosi hali ham hal etilmagan, ma'ruza, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar hamda maktabda amaliyot o'rtasidagi nomutanosiblik avvalgidek ko'zga tashlanib turadi;

- kasbiy tayyorgarlikning nazariy va amaliy tarkibiy qismi strukturasi o'rtasidagi optimal nisbat masalasi hanuz hal etilmagan;

- oliy ta'lim muassasadagi o'quv-tarbiyaviy jarayonda kasbiy-shaxsiy shakllanishga, shuningdek texnologik yangiliklar (bilim va ko'nikmalarga integratsiyalashuv qobiliyatini shakllantirish, axborot texnologiyalari va boshqalardan foydalanish) ni joriy etishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti;

- ijtimoiy, boshqaruv, axborot-muloqot kompetensiyalari shakllanishiga imkon beruvchi fanlararo o'quv fanlarini o'rganish amaliyoti deyarli mavjud emas;

- oliy ta'limning o'quv standarti dasturlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari va boshqalarni kasbga tayyorlashning integrativ jihatlariga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Nazariy tayyorgarlik qanchalik chuqurlashtirilmasin, unga qanchalar

ko'p o'quv soatlari va fanlar ajratilmasin, uning o'zi kelgusi pedagogik faoliyatning ilmiy asosi bo'la olmaydi.

An'anaviy o'qitish metodikasi asosida ta'lim olayotgan talaba mashg'ulotlarda ko'pincha eshitadi, ko'radi, eslab qoladi, takrorlaydi, yoddan aytib beradi, biroq kam o'ylaydi. Muammoli vaziyatni qo'yishga, faraz va uning yechimini ilgari surishiga, muammolarga yechim topishning optimal yo'llarini izlab topishiga, aloqa va munosabatlar o'rnatishiga deyarli to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun ham, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda o'qitishning faol shakllari va metodlaridan foydalanish uchun unga namuna bo'lmaydi.

Metodik tayyorgarlik amaliyotida allaqachon ishlab chiqilgan mazmunga ega turli harakatlar (tahlil, baholash, tarkiblash) ni bajarishga yo'nalganlik sezilib turadi. Talabalar kamdan-kam hollarda ta'lim jarayonini mustaqil loyihalashiga yoki uning muayyan o'quv vaziyatlari bilan bog'liq tarkibiy qismlarini tuzishiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, mazmun bilan ishlashga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Talabalarning metodik tayyorgarligida quyidagi qarama-qarshiliklar mavjud:

- mavjud metodik tajribani o'zlashtirish va rivojlantiruvchi ta'limni ta'minlash hamda takomillashtirish o'rtasidagi qarama-qarshilik;

- pedagogik oliy ta'lim muassasasida ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi fani va boshlang'ich sinfda o'qish savodxonligi fani o'rtasidagi qarama-qarshiliklar (shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va boshlang'ich sinfda o'qitish metodlari metodikasi o'rtasida, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTSdagi o'qish savodxonligi fani uchun qo'yilgan kompetensiyalar va oliy ta'lim muassasada metodik tayyorgarlikda boshlang'ich ta'lim uchun ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi o'rtasida) va boshqalar.

Ta'lim maqsadlari uning natijalari qanday bo'lishini ham belgilab beradi. Endi ular bilim, ko'nikma va malakalarining muayyan majmui sifatida emas, balki o'qish savodxonligini tushunishda talaba namoyish qiladigan intellektual faoliyat (fikrlash amallarini qo'llay olish malakasi, mushohada metodlari, bilish faoliyati metodlarini) tavsifi sifatida ifodalanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik tayyorlash ta'lim jarayonining asosi bo'lgan, doimiy diqqat va e'tiborni talab qiladigan, o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan pedagogik muammo sifatida talqin qilinishini hisobga olsak, ularning tayyorgarligi quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

Oliy ta'lim muassasasida metodik jihatdan puxta tayyorlangan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi keyingi faoliyatida o'qish jarayonini qiziqarli va tushunarli qilib tashkil eta oladi. U egallagan pedagogik bilim va ko'nikmalar o'quvchilarning yoshi, qobiliyatlari va qiziqishlariga mos metod va usullarni tanlash imkoniyatini beradi. O'qish savodxonligi darslari davomida bolalar uchun individual yondashuvlarni qo'llay oladi va ularning ehtiyojlarini inobatga olgan holda darslarni

tashkil etadi. Bu jarayon esa o'z navbatida o'quvchilarning savodxonligini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanib olib borilgan dars mashg'ulotlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga bir muncha yengilliklar beradi. Masalan, multimedia vositalarini qo'llash, didaktik o'yinlar, loyiha asosidagi o'qish metodlari ularda qiziqish uyg'otib, ularning dars jarayoniga faol jalb qilinishiga yordam beradi.

Metodik jihatdan yaxshi tayyorlangan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi bu vositalarni samarali qo'llash orqali o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishi mumkin.

O'quv jarayonida foydalaniladigan didaktik materiallar o'quvchilarning o'qish savodxonligini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. O'qituvchi metodik jihatdan tayyor bo'lsa, u didaktik materiallarni to'g'ri tanlay oladi va ulardan samarali foydalanadi. Bu nafaqat o'quvchilarning savodxonligini oshirishga, balki ularning mantiqiy fikrlash, mustaqil o'rganish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-6108-son qarori. — Toshkent, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. — Toshkent, 2019.
3. Hasanboeva O., Ochilov M., To'raqulova Sh. *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Jalolov J. *Pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodikasi*. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2018.
5. Yo'ldoshev J.G'., Hasanov A.A. *Zamonaviy ta'lim texnologiyalari*. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.